O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti rektori
_____Sh.Sirojiddinov
2021 yil “____” _____

SIGN

60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O'zbek tili)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining fanlar kesimida
kasbiy kompetensiyalari
JADVALI

T/r	Fan nomi	Fan kodi*	Fan qaysi kursda o‘qitili-shi	Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar
	1. Majburiy fanlar			
1.1	Falsafa	302 Fal 1 2	**1**	– yangi bilimlarni mustaqi egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi v mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashk qila olish.
1.2	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	302 O‘zEET 1 2	**1**	– davlat siyosatining dolzar masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodi muammolar va jarayonlarni mustaq tahlil qila olish.
1.3	Mumtoz sharq tillari (arab, fors)	302 MShT 1 6	**1**	– mumtoz sharq tillari (ara fors)ning asarlardagi o‘rni, xattot san’ati va yozuv turlarini yozish farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘li
1.4	Tilshunoslikka kirish	302 TilKir 1 6	**1**	– o‘zbek tilshunosl umumiy tilshunoslikka oid bilimla egallash, ilmiy tadqiqot asosl sotsiolingvistika, o‘z terminologiyasi, o‘z leksikografiyasi, turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi,

				fanlarining dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay olish va o‘quvchilarga yetkaza olish.
1.5	Xorijiy tillar (tillar bo'yicha)	302 XorijT 1 16	**1**	– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish.
1.6	Adabiyotshunoslik asoslari	302 AdabNaz 1 6	**1**	- yangi o‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish malakasi va bilimiga ega bo‘lish; o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyotshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, o‘zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o‘rganilishi, o‘zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; turk,ozarbayjon,qozoq,qirg‘iz,turkman adabiyoti to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish; bu xalqlar adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodi, folklori, yozma adabiyoti namunalaridan xabardor bo‘lish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasi tadqiq qilish orqali tanqidiy qarashni shakllantirish.
1.7	Matnshunoslik va adabiy	302 MAMA 2,3 12	**2, 3**	– aruz vazni va uning qoidalari, mumtoz she’riy asarlarning o‘lchovini

	manbashunoslik asoslari			aniqlash va mumtoz janrlar badiiyatini o‘rganish; islomgacha bo‘lgan Sharq adabiyotshunosligi manbalari, adabiy oqim va yo‘nalishlar, adabiyotshunoslik janrlarining genetik ildizlari va qo‘llanilish mohiyatini tushunish; tasavvufning nazariy manbalari, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari, badiiy asarlar tarkibidagi irfoniy va tasavvufiy g‘oyalarni anglash, ramz va timsollarning ma’nolarini sharhlash bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish, Sharq tazkirachiligi tarixini o‘rganish orqali adiblarning tarjimai holi va ijodiy merosi haqida bilimlarni egallash; adabiy matn tabiatini falsafiy asosda anglash, tadqiq etish va matnni tahrir qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
1.8	Hozirgi o‘zbek adabiy tili	302 HO‘AT 1,2 8	**1, 2**	- hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid bilimlarni egallash, til fanlarining dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay olish va o‘quvchilarga yetkaza olish; - gapning semantik, modal kommunikativ aspekti, o‘zbek tilshunosligida matn, xususan, badiiy matnning semantik-sintaktik v lingvistik mexanizmlarini, o‘zbek tilining mohiyati va uning yetakch vazifalarining namoyon bo‘lis qonuniyatlarini anglash; leksik ma’n va uni belgilovchi omillar, leksi ma’noning struktirasi, leksik ma’no tahlil qilish usullari hamda shu sohad qo‘lga kiritilgan jahon va o‘zbe tilshunosligidagi so‘nggi yutuqllari xabardor bo‘lish; nutq madaniyati uslubiyati asoslarini o‘rganish.
1.9	Xattotlik san'ati	302 XatSan 1 8	**1**	– xattotlik san’ati va yozu turlarini yozish va farqlay oli

				ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
1.10	Eski o'zbek tili va yozuvi	302 EO'TY 2 6	**2**	- eski o‘zbek yozuvini o‘qish va yoza olish, qo‘lyozma va toshbosma matnlarni mustaqil o‘qish.
1.11	O‘zbek adabiyoti tarixi	302 O‘zAdTar 2,3 14	**2, 3**	– yangi o‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish malakasi va bilimiga ega bo‘lish.
1.12	O‘zbek tili tarixi	302 O‘zTilT 3 8	**3**	– o‘zbek tili tarixi, ta’limoti va nazariyalari yirik namoyondalari, tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiyasi va ilmiy yondashuvlarini bilish.
1.13	Zamonaviy matnshunoslik	302 ZM 2 6	**2**	– matnshunoslikning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay olish.
1.14	Davlat tilida ish yuritish	302 DTIY 1 4	**1**	– hujjatchilik tarixi, xususan, sharq hujjatchiligi, hujjat turlari va ish yuritish asoslari, hujjat tili va uslublari haqidagi tasavvurga ega bo‘lish; davlat tilida yoziladigan har qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlarni shakllantirish va tahrir qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
1.15	O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi	302 O‘TO‘M 3 4	**3**	– o‘qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’limi mazmunida fanning o‘rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo‘yicha pedagogik o‘qishlarda ma’ruzalar o‘qishi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilar bilan muloqatda har bir yosh doirasiga psixologik yondashish va o‘rta maxsus ta’limida differensial ta’limni yo‘lga qo‘ya olishi, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlarni yurita olish.
1.16	O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi	302 O‘AO‘M 3 4	**3**	– adabiyot o‘qitish metodikasi, dars berish mahorati va nutq madaniyati masalalarini manbashunoslik va matnshunoslik negizida tadqiq va

				tahqiq etish.
1.17	Adabiy manbalar bilan ishlash metodologiyasi	302 AMBIA 3 6	**3**	- adabiy manbalarning asliyat asosidagi yig‘ma va tanqidiy matnlarini tayyorlash prinsiplarini ishlab chiqish.
1.18	Umumiy psixologiya	302 Umpsix 3 4	**3**	- umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilar bilan muloqatda har bir yosh doirasiga psixologik yondashish va o‘rta maxsus ta’limida differensial ta’limni yo‘lga qo‘ya olish.
1.19	Ilmiy-tanqidiy matn amaliyoti	303 ITMA3 4	**3**	- ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash prinsiplarini ishlab chiqish.
1.20	Umumiy pedagogika	302 UmPed 4 5	**4**	- til va adabiyot fanlarini o‘qitishda na’munaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash; zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish; - mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish.
1.21	Sharq mumtoz poetikasi	302 SHMP 4 5	**4**	- mumtoz she’riy asarlarning o‘lchovini aniqlash va mumtoz janrlar badiiyatini o‘rganish.
1.22	Folklor matnshunosligi	302 FolkMatn 4 6	**4**	- folklorshunoslik, o‘zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o‘rganilishi kabi dolzarb masalalardan xabardor bo‘lish.
2. Tanlov fanlari				
2.1.1	Jismoniy tarbiya va sport	302 JisTar 1 5	**1**	– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.
2.1.2.	Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi	302 YFvaG 1 5	**1**	– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.
2.2.1.	Intelektual va ma’naviy tarbiya asoslari	302 IMTA 1 4	**1**	– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish.

2.2.2	Filologlar uchun matematika	302 FUM 1 4	**1**	– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish.
2.3.1	Turkiy yozma yodgorliklar tili	302 Nav 1 4	**1**	– qo‘lyozma va toshbosma matnlarni mustaqil o‘qish, lug‘atshunoslik, matnshunoslik nazariyasi, foklor matnshunosligi va adabiy manbashunoslik sohalarini o‘rganish, yurtimizda yashab o‘tgan ijodkorlarning qo‘lyozmalarini tadqiq qilish orqali yangi asarlarini topish, fanga ma’lum bo‘lmagan ijodkorlarni kashf etish, islom dini ta’sirida shakllangan kitobatchilik an’analarini tahlil qila olish.
2.3.2.	Lug'atshunoslik	302 Lug' 1 4	**1**	– lug‘atshunoslik, matnshunoslik nazariyasi, foklor matnshunosligi va adabiy manbashunoslik sohalarini o‘rganish.

SIG

ToshDO‘TAU o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektori — S. Normamatov

O‘quv-metodik bo‘lim boshlig‘i — V.Nazarov

Amaliy filologiya fakulteti dekani — S.Muhamedova

“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasi mudiri — R.Zohidov